

60840300 – Veterinariya sanitarriyasi ekspertizasi kunduzgi bo'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi fanlar katalogi

T/r	Fanning kodlari*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr
<b>Majburiy fanlar</b>					
1.01	O'RT1106	*O'zbek(Rus) tili	Noflogik yo'nalishlarda O'zbek(Rus) tilini o'rganishdan asosiy maqsad kelgusi mutaxassisliklarda kundalik hayotlari, kasbiy va ilmiy faoliyatlarida O'zbek(Rus) tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassisliklarni tayorlash. Talabalarning nutq tinglab, til, ijtimoiy - madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatiga bog'liq mavzulari yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.	6	1
1.02	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	Jismoniy tarbiya va sport sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamollikga erishish va o'z-o'zini tarbiyalash, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish zaruratini shakllantirish	4	1
1.03	EAMM1104	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	Bo'lajak mutaxassislariga ekologiya va atrof muhit muxofazasining ekologik va atrof-muhit muxofazasiga oid nazariy asoslarini va amaliy bilimlarni berish, faoliyatga oid malaka va ko'nikmalar shakllantirish	4	1
1.04	SAKT1104	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari	Axborot texnologiyalari va matematik modellashirish jarayonlarini bilishi va undan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, boshqaruv ma'lumotlarni tahlil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qila olish malakalariga ega bo'lishi kerak.	4	1
1.05	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildirish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish. O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g'oyalarga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lish	4	2
1.06	XT1204	Xorijiy til	Noflogik yo'nalishlarda ingliz tilini o'rganishdan asosiy maqsad kelgusi mutaxassisliklarda kundalik hayotlari, kasbiy va ilmiy faoliyatlarida ingliz tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassisliklarni tayorlash. Talabalarning nutq tinglab, til, ijtimoiy- madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy, kasbiy va maishiy	4	1

			faoliyatiga bog'liq mavzulari yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikmak va malakalarini rivojlantirish. Talaba uchun belgilab berilgan A1 (CEFR) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan.		
1.07	BR1204	Biofizika va radiobiologiya	Biofizik jarayonlarini, tabiatda uchraydigan radioaktiv izotoplarining manbalari va ularning tirik organizmga biologik ta'sirini, yadroviy nurlanishlar natijasida hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan patologik o'zgarishlarni bilish, hayvonlarda nurlanishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni diagnostika qilish va davolashda fizikaviy usullarni to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.	4	1
1.08	AFK1204	Analitik va fizikoloid kimyo	Analitik va fizikoloid kimyoviy jarayonlarini bilishi va ulardan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, sohaga oid ma'lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.	4	2
1.09	LTV A1204	Lotin tili va veterinariya atamallari	Veterinariyada terminlar va atamalar leksik minimumlarini bilish, talaffuz jixatidan to'g'ri va erkin o'qish, lug'at bilan va lug'atsiz atamalarini tarjima qilish, lotin grammatikasi qonunlari asosida xatosiz yozish.	4	2
1.10	F1304	Falsafa	Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish; ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish va prognozlash tura olish, gen ontologiyasi, bioontologiyani ijtimoiy ahmiyatini aniqlash, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ekologiya, ijtimoiy ekologiya, ta'lim va tarbiya haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, dinning ijtimoiy, kommunikativ va kompensatorlik, falsafaning dunyoqarashni shakllantiruvchi va metodologik, fanning mafkuraviy, haqiqatni bilish funksiyalarining mutanosibligi, internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi, o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, korruptsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi va unga qarshi kurashda daxldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilish bo'yicha xulosa qilish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi kerak.	4	3
1.11	D1404	Dinshunoslik	Dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o'rganish ko'nikmalarni shakllantirish	4	4
1.12	LIA1106	Laboratoriya ishi asoslari	Laboratoriya diagnostika tahlillarini o'tkazish uchun nazariy	6	2



			<p>bilimlar, amaliy ko'nikmalarni berish, laboratoriya tekshiruv rejasini tuzish ko'nikmalarini o'rgatish, veterinariya laboratoriyalarining tuzilishi, tarkibi, shtat birliklari, jihozlanishi, laboratoriyalarda ish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalarini, har xil zararli ta'sirlardan individual va kollektiv himoya vositalarini o'rgatish, baxtsiz hodisalarda birinchi yordam ko'rsatish, laboratoriya idishlarini turlari, ishlatilish maqsadi, ularni tayyorlash o'rgatishdan iborat.</p>		
1.13	HA1108	Hayvonlar anatomiyasi	<p>Barcha turdagi hayvonlar va parrandalar anatomik tuzilishining tamoyillari va jihatlari bo'yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, organlarning normal tuzilishi, topografiyasi, funksiyasi va klinik muhim organlarning o'zaro bog'liqligi hamda tafovutlarini anatomik model sifatida turli hayvonlar va parrandalarda o'rganish, organlarning anatomo-topografiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>	8	1,2
1.14	VKE1204	Veterinariyada kasb etikasi	<p>Veterinariya vrachining madaniyati, etikasi, veterinariya vrachining jamiyatda tutgan o'rni va veterinariya vrachining betakror ustunliklari borasidagi tushunchalarni singdirish, shu bilan birga bo'lajak veterinariya vrachlarida faxr tuyg'usini shakllantirish ko'nikmasini hosil qilish.</p>	4	3
1.15	HB1306	Hayvonlar biokimyosi	<p>Hayvonlarning biokimyoviy jarayonlarini bilishi va ulardan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, sohaga oid ma'lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>	6	2
1.16	ZChBL1306	Zoogigiyena va chorvachilik binolarini loyihalash	<p>Hayvonlar organizmiga tashqi muhit omillarining hayvonlar turi, jinsi, zoti, saqlash sharoiti, maxsuldorligi va boshqa ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishini turli toifadagi chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlar maxsuldorligini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish</p>	6	3
1.17	HF1306	Hayvonlar fiziologiyasi	<p>Hayvonlar organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini, kechishi va boshqarilishini, moddalar almashinuvi hayotiy jarayonlarning asosiy mohiyati ekanligini, ularning hayvonlar mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyatini bilish, hayvonlarning fiziologik ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>	6	3
1.18	VMI1308	Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi	<p>Asosiy biologik fan sifatida kelajakda mutaxassislarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular tabiatda, organizmda, xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida uchraydigan turli xil biologik jarayonlar bilan chuqur tanishadi.</p>	8	3,4

1.19	BAK 1406	Baliq va asalari kasalliklari	Baliq va asalarlarning infeksiyon, invazion, yuqumsiz va turli xil zaharlanishlarini aniqlash, ularning zararkunandalari va dushmanlariga qarshi uzviy kurashish, davolash, oldini olish chora-tadbirlarini hamda ushbu kasalliklar aniqlangan baliqchilik va asalari bilan fermer xo'jaliklarida sog'lomlashtirish muolajalariga oid bilim, ko'nikma va amaliy malakalarini shakllantirish.	6	4
1.20	HP1406	Hayvonlar patofiziologiyasi	Hayvonlar organizmida kechayotgan patologik jarayonlarning etiopatogenezi, me'yoriy va patologiyani farqlashni, kasalliklar rivojlanishining ilmiy va amaliy qonuniyatlarini bilish, turli omillarning patologiyadagi ahamiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	6	4
1.21	VV1506	Veterinariya virusologiyasi	Veterinariya virusologiyasi mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, viruslarning kelib chiqishi, ularning tuzilishi, xususiyati, hayvonlarda virus kasalliklarining patogenezi, virusga qarshi immunitetning o'ziga xosligi, maxsus profilaktika usullari va vositalari to'g'risida bilim olishga qaratilgan.	6	5
1.22	VFT1506	Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi	Tabiiy, yashash joylari va qishloq xo'jaligi hamda sanoat ishlab chiqarish sharoitlarida uchraydigan, hayvonlar organizmiga zararli toksik ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan moddalarni bilish, toksikantlar ta'siridan yuzaga keladigan zaharlanishlarni davolash va oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.	6	5
1.23	PAGYVSE 1506	Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi	Hayvonlarning turli kasalliklarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlarni va shu asosida patoloanatomik tashxis qo'yish usullarini bilish, kasalliklarga qiyosiy tashxis qo'yish, gavda yorish texnikasini o'zlashtirish, hayvon gavdasini veterinariya sud ekspertizasidan o'tkazish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	6	5
1.24	PIK1606	Parazitologiya va invazion kasalliklar	Organizmlarning o'zaro munosabatlari, parazitizmning kelib chiqishi, tarqalishi, parazitlarning klassifikatsiyasi, parazit xo'jayinlari, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi, epizootologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, patologo-anatomik o'zgarishlari, tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarini o'zlashtirish, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularning iqtisodiy zararini tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	6	6
1.25	VSE1606	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	Oziq-ovqat mahsulotlari, chorva mollari, parranda, baliq, asal va o'simliklardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarni sanitariya jihatdan baxolash, mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasini va	6	6

	XVN2306	Xalqaro veterinariya nazorati	Xalqaro veterinariya nazorati sohasida qo'llaniladigan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish, xalq xo'jaligi amaliyotida veterinariya va chorvachilikning barcha sohalarida amalga oshirishda qo'llaniladigan xalqaro veterinariya qonunchiligi va huquqiy-me'yoriy xujjatlardan foydalanish malakasiga ega bo'lish.		
2.02	SGE2404	Sitologiya, gistologiya va embriologiya	Hujayralarning ultratuzilmasi, shakllanish va ko'payish qonuniyatlarini, hayvonlar organizmidagi to'qimalarni hosil bo'lishi, gistologik tuzilishini, organlar tizimlarining mikroskopik tuzilishini, hayvonlar organizmining embrional taraqqiyotini kechish tamoyillarini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.		
	VA2404	Veterinariya akusherligi	Hayvonlar jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, hayvonlarni ko'paytirish biotexnikasi, bo'g'ozlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi va patologiyasi, akusher-ginekologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklari, urg'ochi va erkak hayvonlar bepustliklarni sabablari va kechish xususiyatlarini o'rganish, diagnostikasi, davolash va oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish hamda ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	4	4
2.03	KDIYK2504	Klinik diagnostika va ichki yuqumsiz kasalliklar	Klinik tekshirish rejasi va tartibi (klinik ssenariya) hamda laborator analizlari ma'lumotlari tahlili asosida organizmdagi har xil tizimlarda kechayotgan har xil kasalliklar (buzilishlar)ni aniqlash va tashxis qo'yish, kechayotgan patologik jarayonlarga ilmiy baho berish, kasallikka uchragan a'zolari fiziologik darajaga qaytarishga qaratilgan rentgenografiya va ultratovush tekshirishlardagi tasvirlarning ichki a'zolar kasalliklarini aniqlashdagi ahamiyatiga e'tibor qaratish malakasiga ega bo'lish. Hayvonlarida uchraydigan ichki yuqumsiz kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, ularning sabablarini aniqlash, davolash sxemasi va davolash kursini to'g'ri belgilash, oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda klinik fikr yuritib ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.		
	MULYEHK 2504	Mayda uy, laboratoriya, yovvoyi va ekzotik hayvonlar kasalliklari	Mayda uy, laboratoriya, yovvoyi va ekzotik hayvonlar infeksiyon, invazion va yuqumsiz kasalliklarining kelib chiqish sabablari, epizootologiyasi, patogenizi, iqtisodiy zarari, klinik va kasallikni zamonaviy laborator tekshirish usullari orqali aniqlash, ulardan amaliyotda foydalana olishi lozim. Kasalliklarga diagnoz qo'yish tartibini, davolash, kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tashkillashtirishda nazariy va amaliy asoslarini hamda bu	4	5



			muammolar bo'yicha yechimlar qabul qila olish malakalariga ega bo'lishi kerak.			
2.04	VX2504	Veterinariya xirurgiyasi	Hayvonlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarning etiopatogenezi, tashxisi, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini bajarish, xirurgik operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish hamda uni amalga oshirish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
	OXTA2504	Operativ xirurgiya va topografik anatomiya	Hayvonlar a'zolarining anatomo-topografik tuzilishi, ularda o'tkaziladigan operatsiyalar, og'riqsizlantirish, narkoz turlarini bilish, turli xildagi xirurgik kasalliklarda qo'llaniladigan operatsiya usullari va ularni bajarish texnikasini amalda qo'llash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	4	5	
2.05	OOQISK VSN 2604	Oziq-ovqat va qayta ishlash sanoat korxonalarida veterinariya sanitariya nazorati	Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini nazariy asoslarini, qayta ishlash sanoati korxonalarida va savdo yarmarkalarida, oziq-ovqat korxonalarga qarashli mahsulotlarni sifat nazorati va qayta ishlash korxonalariga olib kelinadigan xomashyolar xavfisizligini nazorat qilish va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
	PK2604	Parranda kasalliklari	Parrandalarning infeksiyon, invazion va yuqumsiz kasalliklarini to'g'ri aniqlash, iqtisodiy zarari, klinik va patologoanatomik ko'rsatkichlarni, zamonaviy laboratoriya tekshirishlarni bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi lozim. Parrandalardan qon va najas olish tartibi, undagi bakteriya, zamburug', parazit, viruslarni ajratishni, parranda kasalliklariga diagnoz qo'yish tartibini, zamonaviy davolash usullarini qo'llash va veterinariya xizmatini to'g'ri tashkillashtirish hamda samarali amalga oshirish malakasiga ega bo'lish.	4	6	
2.06	PBAMVSN 2508	Parranda, baliq va asalari mahsulotlarini veterinariya sanitariya nazorati	Parranda va baliq tanasini qayta ishlash va mahsulotlarini veterinariya sanitariya jihatdan baholashda zamonaviy tekshirish usullardan foydalanib mahsulotlarni sanitariya jihatdan nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi, asalari va asal mahsulotlarini yangiligini hamda oziq-ovqat sifatiga baho berishda organolitik ko'rsatkichlari kimyoviy tarkibi asosida ularga baho berish ko'nikmalariga ega bo'lish va ularni tahlil qilib baho berish malakasiga ega bo'lish.	8	5,6	
	ChMVSE 2508	Chorvachilik mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	Chorva mollari parranda, baliq, asalarlardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarni sanitariya jihatdan baxolash, mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasini va uning sanitariya gigiyenik qoidalarini hamda barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.			
2.07	GGMVSE	Go'sht va go'sht	Go'sht va go'sht mahsulotlarini tayyorlashda, qayta ishlash va	6	6	

	2606	mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	sifatini baholashda ularni veterinariya sanitariya ekspertiza tekshirish usullari va sanitariya jixatdan baxolash ko'nikmalari va ularni taxlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish		
O'OOMV'SN 2606	O'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	O'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasini va uning sanitariya gigiyenik qoidalarini hamda barcha turdagi o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.	O'simliklardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya jixatdan baxolash, mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasini va uning sanitariya gigiyenik qoidalarini hamda barcha turdagi o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.		

**840 000-Veterinariya ta'lim sohasi**  
**Muvofiqlashtiruvchi soha kengashi raisi**



**X.B.Yunusov**